

**ERKIN SAMANDARNING “QUYUN IZLARI YOXUD OGAHİY” ROMANIDA
STILİZATSIYA USULIDAN FOYDALANISH MAHORATI**

Masharipova Farida Zokirovna

Urganch shahar 19-sonli IDUMning
ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi

Badiiy asarni yozish jarayonida yozuvchi turli asarlardan andoza oladi, ergashadi va o‘scha asnoda kashfiyat yaratadi. Erkin Samandarning nasriy asarlarida bu hodisa alohida ko‘zga tashlanadi. Biz so‘z yuritayotgan “Quyun izlari yoxud Ogahiy” romanida ijodkor xalqona tasvir uslubiga ko‘proq ahamiyat bergen.

Stilizatsion folklorizlar “...asosan folklor materiallarining ham g‘oyaviy, ham mazmuniy jihatlariga to‘liq tayangan holda ularni yangi shaklda qaytadan ishlov berish tufayli yuzaga keladi”.¹ Ijodkor ramz, tush, xayolot, obrazlar kabi folkloriga xos omillarni stilizatsiya asosida o‘z asariga singdirar ekan, yangi tasvir usuli topish, yangi tasviriy vositalar izlash orqali roman badiiyatini yuksaltiradi, yangicha poetik tamoyillarga erishadi. Folklorshunos I.Yormatov “...folklor motivlariga ijodkor erkin yondashib, uni to‘liq qayta ishlasa, bunday stilizatsiya progressiv stilizatsiya, agar folklor materiallarining shakli kengaytirilib, uning g‘oyasi aynan berilsa, regressiv stilizatsiya...”² sanalishini ta’kidlaydi. Folklorga xos an’analarga erishish xalqning turmush tarzi to‘g‘risida salmoqli lavhalar yaratishga yo‘l ochadi.

Erkin Samandar obrazlar ruhiy dunyosini, ichki kechinmalarini yoritish uchun turli stilizatsiya usullaridan foydalanadi. Inson xayolotsiz yashay olmaydi. Xayolot bilan bog‘liq illyuziya, sarob degan so‘zlar ham ishlatiladi. Xayolot ham mifga, o‘xshaydi. Ammo u insonning tushida emas, balki o‘ngida ro‘y beradi. Kuchli ruhiy keskinlik kishini illyuziya girdobiga tortadi. Xayolotga cho‘mgan inson unda o‘z orzu umidini his qiladi. Dili sevgan insonlar bilan uchrashadi, muloqot qiladi.

“Quyun izlari yoxud Ogahiy” asarida xayolot bilan aloqador ikki lavha berilgan. Birinchi lavha turkmanlar ovulida kechadi. Har bir millat vakillari orasida do‘sht ham bor, dushman ham. Qora Sardor Xiva xonining dushmani. U atrofiga o‘ziga o‘xshagan ko‘plab kishilarni to‘plash uchun harakat qiladi. Uni ayg‘oqchi sifatida rus generali ham qo‘llaydi. Xayolot lavhasi Qora sardor bilan oddiy turkman fuqarosi, to‘g‘ri so‘z, ammo bangi nomini ko‘targan Jaqay o‘rtasidagi suhbat asosiga qurilgan. Jaqay Xiva xonini qo‘llab-quvvatlaydi. Qora sardor esa uni bu fikridan qaytarmoqchi bo‘ladi. Jaqay bangi bo‘lsa ham sodda va sofdir inson. Uni Qora sardor jerkib tashlaydi, do‘q uradi va ters burilib ketadi. Jaqay esa xayolot ummoniga sho‘ng‘iydi. “Poyonsiz qum... Kech qoraygan. O‘rtada katta gulxan. Tonqachoylar qaynab turibdi. Jaqay qarasa, gulxan atrofida uch siymo ilkis ko‘zga tashlanadi. Jaqay yaqinroq borib nazar solsa,

¹ Sarimsoqov B. Folklorizmlar tipologiyasiga doir // XX asr o‘zbek folklorshunosligi. Antalogiya.[Matn] // Tuzuvchilar: To‘laboyev va boshq. – Toshkent. 2017.B.354

² Yormatov I.Stilizatsiya xarakteridagi folklorizmlar // O‘zbek tili va adabiyoti.-Toshkent,1984.-№. B.33

ko‘kdan sado kelib, sadodan keyin parilarga o‘xshash pokiza zotlar ohista erga qo‘nib, o‘tirgan uch siymo oldiga kelishadi. Jaqay diqqat bilan tikilsa, ular Arab Muhammadxon madrasasida uchratgan tanish ikki siymo-Ogahiy va qoraqalpoq shoiri Ajiniyoz, so‘ng birdan Maxtumquli ko‘zga tashlanadi. Ikki barhayot shoир va bir ruh gulxan atrofidagilarga oq fotiha berishadi. Farishtalar esa omin deyishadi. Jaqayning ichi ravshan tortadi. Shu payt Qora sardor diqqatini bo‘ladi. Jaqay unga gulxan tomonga ramz sol, deydi. Sardor esa hech nimani ko‘rmaydi. Jaqayni yana o‘z tomoniga og‘dirmoqchi bo‘ladi. U esa rad qiladi. Qora sardor uni o‘ldiradi³. Yozuvchi ushbu lavhani keltirishi bilan katta badiiy niyatni oldiga qo‘yadi. Avvalo u oddiy kishilar qalbidagi xohish-istikni, do‘slik, birodarlikni ulug‘lashni maqsad qilib qo‘yadi. Vohadagi o‘zbek, turkman va qoraqalpoq xalqlari do‘sligini uchta buyuk siymo orqali ko‘rsatmoqni niyat qiladi. Mamlakatni tanazzulga eltuvchilar sanoqli xudbin, sotqin kimsalar ekaniga ishora etmoqchi bo‘ladi. Tasvir negizida mifologik tasavvur yotadi. Ijodkor o‘sha asotiriy tasavvur vositasida real shaxslarni jonlantiradi. Birodarlikni, do‘slikni ulug‘laydi. Ushbu g‘oyani gavdalantirish uchun oddiy bir kishining xayolot olamiga kitobxonni olib kiradi.

Romandagi Jaqay obrazida ham folkloriy timsollar ta’siri kuchli. U bangi bo‘lsa ham sog‘lom fikrlaydi, sofdil, to‘g‘ri so‘z, adolatparvar, ayni paytda chapani, afandinamo bir kishi. Qora sardor uni o‘lim bilan qo‘rqitsa-da, uning ig‘volariga uchmaydi, aldoviga ishonmaydi. O‘z eliga, xon hazratlariga e’tiqodi kuchli, xiyonatga yuz tutmaydi. O‘sha tiynati uchun Qora sardorning qurbaniga aylanadi.

Ijodkor peyzaj stilizatsiyasidan ham samarali foydalanadi. Ertak va dostonlarda tabiat tasviriga katta e’tibor qaratiladi va ushbu manzara aksariyat hollarda obraz ruhiyati yoki voqelik xarakter-xususiyatlari bilan bog‘lanadi. Romanda ham ushbu andoza saqlangan. Rus bosqinidan keyin Ogahiy hazratlari juda ma‘yuslikka beriladi. Yozuvchi uning ruhiyatini tabiat manzaralari orqali ifodalashni maqsad qilib qo‘yadi: “Garchi gullar g‘arq ochilgan, lekin barglarida avvalgi turfa ranglar kam. Garchi oq tut pishdi, biroq yuki oz. Miroblar o‘ramining ikki tarafidan sharqirab oqib turuvchi yoplarning ham shashti past, to‘lqinlarining oldingi yuguriklari yo‘q. Har yili bog‘ni boshiga ko‘tarib sayraguvchi bulbullar qaergadir g‘oyib bo‘lgan, bir-ikkita qolganlari esa faqat nola qiladi, faqat nola. (“Quyun izlari”, 89-bet). Ijodkor mazkur lavha bilan Ogahiy hazratlarining tushkun ruhini uyg‘unlashtiradi.

Erkin Samandarning folklor an’analaridan foydalanish doirasi juda keng. Romanda xalqqa xos an’anaviy mubolag‘alar, olqish, qarg‘ishlar, tilak, so‘kishlar, qasamlar uchraydi. Ushbu vositalar asarning xalqchillik ruhini yanada oshiradi, maishiy turmush bilan aloqador vaziyatni jonlantiradi. Bizga ko‘p jihatlari bilan tanish Shomurod inoqning tiynatini oydinlashtirish uchun mubolag‘aviy ifodalardan ham foydalanadi: “...avvallari, otda yurgan paytlarida odamning joni pashshachalik ham ko‘ringan emasdi-da unga. Hatto buyrug‘ini

³ Erkin Samandar. Quyun izlari yoxud Ogahiy.-T.: “MUMTOZ SO‘Z”, 2009.-B.39

bajarmaganlarni jahannamga jo‘natish oddiy ish bo‘lib ko‘ringan. O‘zganing qonini to‘kishdan **bitta mo‘yi ham qilt etgan emas**”. (“Quyun izlari”, 192-bet). Tasvirda qo‘llanilgan mubolag‘aviy o‘xshatishlar inoqqa xos shafqatsizlikni yaqqol ifodalashda muhim vositalar sifatida xizmat qiladi.

Asarda Ogahiy Buxoro shaxzodasi Abdumalik to‘rani bog‘iga taklif qiladi. To‘ra bog‘ni ko‘rib: “Bog‘ingiz ko‘p fayziyob, hazrat, jannati ravzanga mengzar, bog‘bonining **qo‘li dard ko‘rmag‘ay**, dedi lutfan. Bu ko‘p qo‘l qabarishlar hosilasi ekani ayondur, **tasanno!**

- **Tashakkur**, amirzoda, -dedi mavlono mehmonning lutfidan mutaassir bo‘lib”. (“Quyun izlari”, 91-92-betlar). Ushbu dialog ikkita etuk ziyolining yuksak ma’naviyatini namoyon qiladi.

Ijodkor romanda obrazlar stilizatsiyasiga ham e’tibor qaratgan. Siddiq polvon obrazi bunga misol bo‘la oladi. Yozuvchi, avvalo, uning yigitlari haqida so‘zlaydi: “Uning odamlari tanti va jo‘mard, suv kelsa simirib, tosh kelsa kemiradigan toifadan. Ularning sardori nomi olish yaqinda og‘izga tushgan. O‘tda kuymas, suvda oqmas Siddiq Polvon bo‘ladi... Yoshi o‘ttizga yetgan hozirgi kunda u har jihatdan Xorazmning old polvoni. Zohiri (tashqi ko‘rinishi) ertaklardagi pahlavonlarga mengzaydi. Bo‘yi minoraday, belidagi qanjirg‘asi o‘ttiz qulochdan uzun bo‘lsa uzun, kam emas. Chorig‘ining og‘irligi bir botmon. Qilichini o‘zidan boshqa odam ko‘tarolmaydi”. (“Quyun izlari”, 42-bet). Siddiq polvonga berilgan ta’rif “Go‘ro‘g‘li” eposidagi qahramonlar portretiga juda o‘xshab ketadi. “O‘tda kuymas”, “Suvda oqmas” kabi tasvirlar ham ertak va dostonlardagi an’naviy birikmalarning aynan o‘zidir.

Adib badiiy nutqda xalq ma’naviy boyligidan qanchalik samarali foydalansa, asar tili shunchalik bo‘yoqdor va ta’sirchan xarakterga ega bo‘ladi. Erkin Samandar lirik asarlarida ham, nasrda ham ushbu xalqona durdonalardan keng miqyosda foydalangan adibdir.